

MARK TVENNING "TOM SAVYERNING SARGUZASHTLARI" HAMDA XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "SARIQ DEVNI MINIB" ASARI O'RTASIDAGI LINGVOMADANIY LISONIY TILNI IFODA ETILISHI

Muhammadjonova Farangizbonu Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Ilmiy rahbar: Farg'ona Davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8053506>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan ikki asar orasidagi lingvomadaniy lisoniy tilni ifoda etilishi tatbiq qilinadi

Kalit so'zlar: tarjimon, madaniyatshunoslik.lingvokulturologiya, frezeologik birliklar, madaniyatning fonemoni, sujet.

Hozirgi tez suratda rivojlanayotgan bir davrda til o'rganish hamda uni turli usullarda tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida tarjimashunoslik fanining rivojlanishiga ham sabab bo'lmoqda. Tarjimashunoslik nafaqat ikki tilni qiyoslash balki u tilning salohiyati va imkoniyatlarini ko'rsatadigan jahon adabiyotini milliy tilda qayta kashf etadigan fan tarmog'i sifatida tan olindi. Bir davlatning sermazmun asarlaridan tortib she'r, masal maqollari tarjima qilishda tarjimondan yuksak mahorat va sabr talab qilinadi. Chunki bir tilda yozilgan asarni ikkinchi tilda yozilgan asarga qiyoslashda o'sha til madaniyati, urf-odat va an'analari alohida e'tiborga olinishi kerak bo'ladi. Ushbu maqolada shu kabi masalalarni o'z ichiga olgan holda amerikalik yozuvchi va yumorist Mark Tvenning mashhur asari "The Adventures of Tom Sawyer" (Tom Soyerning sarguzashtlari) hamda o'zbek bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlarida lingvomadaniyatni ishlatilishi ko'rsatiladi. Birinchi navbatda asarlarning qanday yaratilganligini e'tiborimizni qaratsak. Xudoyberdi To'xtaboyev "Sariq devni minib" asari qahramonlari va syujetini yaratishda o'z hayot dunyosiga murojaat qiladi. Mark Tven esa o'z asari bosh qahramoni Tomni o'z bolalik xotiralarini eslagan holda yaratadi. Ushbu ikki asarda bir qancha o'xshash jihatlar mavjud. Birinchisi har ikkala asarning bosh qahramon obrazini bola egallaydi va asarlarning janri sarguzasht roman hisoblanadi. Asar bosh qahramonlarini ya'ni "Sariq devni minib" asarida Hoshimjon va "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarida Tomni qiziqqon, sho'x va sarguzashtlarga o'ch bolalar obrazlarida gavdalantirilgan. Bundan tashqari bu ikki asar syujeti devor oqlash jarayonini o'z ichiga olgan va ikkala asarda ham bosh qahramonlarning yaqin do'stlari, Tomning Huckleberry Fin va Hoshimjonning sehrli qalpoqchasi sarguzashtlarni boshdan kechirishda hamrohlik qilishadi. Shunday qilib bu asarlarning o'xshash jihatlar ko'p. Biroq tarjimashunoslikda lingvomadaniy tushunchalar mavjud. Lingvokulturologiya yoki lingvomadaniyat o'zi nima degani? Lingvokulturologiya til tadqiqining yangi sohasi hisoblanib madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan. Fanning bu tarmog'i madaniyat va tilning o'zaro aloqasini o'zaro ta'sirini va tilda mavjud bo'lgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq qiladi. Mazkur fanda leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikka oid terminlar ularning tarkibiy qismlari va madaniy ma'nolar o'rganiladi. Quyida ikki asar o'rtasidagi shu kabi masalalarni ko'rishimiz mumkin. "Tom Savyerning sarguzashtlari" asarida Tom do'stlari bilan orolga qochib ketgan sahnaga duch kelamiz. Ushbu sahnada Tom Sawyer do'stlari bilan trubka chekishga bo'lishadi va o'zboshimchalik bilan buni amalga oshirishadi. Bu amerikaliklar uchun chekish odatiy bir xol

lekin o'zbeklar nigohida bolalarning chekishi yomon bir illat sifatida qoralanib qaraladi. Ushbu masala ham lingvomadaniyatning bir turi hisoblanadi. Bundan tashqari Mark Tvenning asarida ko'zi o'tkir inson mushukka qiyoslanasa, o'zbek madaniyatida esa ko'zi o'tkir insonni " burgut ko'z " deyishadi. Qo'shimcha sifatida Tom Soyerning sarguzashtlari asarida Tomning xolasi tanbeh berish uchun " I told you the forty times " (Senga qirq marta aytdim) deyilsa, Sariq devni minib asarida Hoshimjonning buvisi " Senga ming marta aytganman " kabi iboralarni qo'llaydi. Ko'rib turganimizdek har ikkala asarda bir hil tushuncha ifoda etilishiga qaramasdan , ikkala xalqning o'ziga xos frezeologik birliklari va iboralari ishlatilgan.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, tarjima qilishda tarjimondan yuksak mahorat va sabr talab qilinishining sababi ham aynan millatning madaniyatini urf-odat va an'alarini umuman olganda lingvomadaniyatini ko'rsatib berishdir. Yuqoridagi asarlar esa bu jumalarga yorqin namuna bo'la oladi.

References:

1. Khoshimova, N. A. (2021). Associative fields of the collective and individual conscious. Theoretical & Applied Science, (5), 436-439.
2. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). Usage of english military terminologies as a neutral and colloquial vocabulary. Current research journal of philological sciences (2767-3758), 2(11), 162-167.
3. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. Молодой ученый, (19), 584-585.
4. Aliyeva S. .(2022) Language holidays and their celebration in the Uzbek and English nations"ONLINE - CONFERENCES&Quot; PLATFORM, 154-157.

INNOVATIVE
ACADEMY